

RESEARCH ARTICLE

What is "badiylik" and what about "badiyat"?

Kamola Rasulova

Postgraduate Student Tashkent State University of Oriental Studies Toshkent, Uzbekistan

VOLUME: Special Issue 2026

PAGE: 87-89

Copyright © 2026 European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, this is an open-access article distributed under the terms of the Creative Commons Attribution-Noncommercial-Share Alike 4.0 International License. Licensed under Creative Commons License a Creative Commons Attribution 4.0 International License.

Abstract

This article provides an in-depth scholarly analysis of the concepts of badiylik (artistic quality) and badiyat (aesthetic integrity) within the framework of Uzbek literary studies and translation theory. The study interprets badiylik as a system of artistic techniques and stylistic devices used by an author, whereas badiyat is defined as the resultant aesthetic effect produced by these devices.

KEY WORDS

Artistic quality, aesthetic integrity, literary translation, stylistic devices, imagery, authorial style, cultural reality.

INTRODUCTION

Tarjimashunoslikda badiiy tarjima eng murakkab yo'nalishlardan biri. Chunki bunda nafaqat mazmun, balki uslub, badiiy obrazilar, ifoda vositalari, milliy realiyalar, muallif dunyoqarashi kabi qatlamlar ham o'z aksini topishi kerak. Ushbu jarayonda "badiylik" va "badiyat" tushunchalari markaziy o'rinni egallaydi.

Ushbu maqolada N.K.Gey, N.Shamota, Izzat Sulton, Matyoqub Qo'shjonov kabi olimlarning nazariyalari keng qamrovda sharhlab berilib, ushbu tushunchalarning o'zaro farqlari va birlikdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, badiiy tarjimada badiylik vositalarining ko'chi-shi, milliy realiyalarni uzviy ifodalash, obrazlilikni tiklash, kompozitsiya kabi muammolar ham ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot badiiy asarning estetik mohiyatini anglashda "badiylik-vosita, badiyat-natija" konsepsiyasining ustuvorligini dalillar bilan ilmiy asoslaydi.

Badiylik – vosita, badiyat – natija. Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikda badiiy asarning estetik tabiatini tahlil qilishda "badiylik" va "badiyat" tushunchalari ko'pincha birga qo'llanadi. Ammo ular o'zaro sinonim emas; badiylik – bu jarayon va vositalar, badiyat esa – shu vositalar orqali

erishiladigan yakuniy estetik natijadir.

1. Badiylik – bu vosita (jarayon, texnika, usul)

Badiylik yozuvchi yoki tarjimon qo'llaydigan badiiy ifoda vositalari, kompozitsion usullar, tilning boy imkoniyatlarini ishga solish jarayonidir. U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) Til vositalari: metafora, epitet, tashbeh, metonimiya, sinekdoxa, onomatopeya, sinonimik qatlamlar. Bu badiiy tilning elementlari, ya'ni vositalardir.

b) Tasvir usullari: obraz yaratish, detal tanlash, psixologik tahlil, tasvir dinamikasi, ritm va ohang

c) Kompozitsion qurilish: voqealar tartibi, dramatismni oshirish, kulminatsiya va yechim. Bularning bari badiylikni tashkil qiladi. Ya'ni yozuvchi shu vositalarni qo'llagan sari asar "badiiy" tus ola boshlaydi. Demak, badiylik – bu estetik vositalar majmui.

Rus ilmida badiylik sohasida maxsus shug'ullangan kishilar N. Shamota va N.K. Geydir.

N.K. Gey deydi, badiylik mezoni (kriteriy)lari uchta:

1. Badiiy tasvirning hayot haqiqatiga mos kelishi (S.Tovmosan,

M.Gus).

2. "Obraz tipizmi" yoki "tipiklik mezoni" (A. Seytlin, T.Motileva).

3. Mazmun va shakl birligi (Plexanov, Lunacharskiy, Vorovskiy). [1,335-336].

Izzat Sulton o'zining nazariyaga oid darsligida "Badiiylik kri-te-ri-ya-lari" degan alohida sarlavha qo'yib, ta'sirdorlik, mazmun va shakl bir-ligi, obraz, haqqoniylik, obyektivlik, tipiklik, mazmunning sal-moq-dor-ligi, samimiylik, yozuvchining g'oyaviy pozitsiyasi, mahorat, dra-ma-tizm, sodda tilda yozish, tilning tushunarli, ravshan bo'lishi lo-zim-li-gi, yozuvchining talanti, his-tuyg'u haqida so'zlaydi. Bu joyda aytil-ma-gan gaplarga darslikning boshqa joylarida duch kelinadi.

Izzat Sulton mazmun va shakl mosligi, samimiylik va mahoratni ba-diiylikning muhim shartlari; til, haqqoniylik va kitobxonni ha-ya-jon-ga solishni badiiylikning alomatlarini deb ham ataydi. Uning xulosasi shu-ki, badiiylikning asosiy "kriteriya" (yunoncha, o'lchov)lari to'rtta, masalan:

a) "obrazli tafakkur orqali ifodalangan haqqoniylik";

b) "samimiylik";

v) "mazmun bilan shaklning bir-biriga mosligi";

g) "badiiy til" [2, 226].

"Badiiylik masalasi o'zbek adabiyoti ilmda maxsus, keng, atroflicha ilmiy tekshirilmagan. H.Yoqubov, S.Mamajonov, L.Qayumov, O.Tog'a-yev, A.Hayitmetov, N.Shukurov, U.Normatov, N.Mallayev, B.Sarim-so-qov, A.Rustamov va boshqa o'zbek olimlarning asarlarida ham badi-iy-lik-ka oid qimmatli mulohazalarni uchratish mumkin" [3,10-11].

2. Badiiyat – bu natija (hosila, umumiy estetik butunlik)

Badiiyat – yozuvchi yoki tarjimon qo'llagan badiiy vositalarning ya-ku-niy, umumlashgan, yaxlit estetik samarasi. U quyidagilarda namoyon bo'-ladi: a) Asarning estetik ruhida: Asarda qanday kayfiyat, ruh va ohang hukmron bo'lsa – bu badiiyatdir.

b) Obrazlarning yaxlitligida: Personajning jonli, tabiiy va ishonarli bo'lib chiqishi.

c) O'quvchida uyg'otilgan estetik ta'sir:

Masalan: hayrat, larzaga kelish, zavq, taassurot, estetik qoniqish. Bu – badiiyatning bevosita natijasidir.

d) Asar dunyosining butunligi. Yozuvchi yaratgan: davr ruhi, muhit, falsafiy g'oya, ichki timsollar tizimi. Bularning barchasi birlashib badiiy olamni yaratadi. Mana shu olam – badiiyat.

Demak, badiiyat – bu vositalar qo'shilganda paydo bo'ladigan umu-miy estetik qiymatdir.

"Badiiylik – vosita, badiiyat – natija" degan fikrning mantiqiy asos-lay-digan bo'lsak:

Quyidagi ketma-ketlikni tasavvur qiling:

1. Yozuvchi badiiy vosita tanlaydi – epitet, obraz, ohang.....

2. Bu vositalar matnda real tasvirga aylanadi.

3. Tasvirlardan ichki estetik uyg'unlik vujudga keladi.

4. O'quvchi o'qiganda estetik ta'sir sezadi.

5. Mana shu yakuniy estetik ta'sir – badiiyatdir.

Shu bois:

– badiiylik – usul, texnika, vosita;

– badiiyat – ularning umumiy natijasi, estetik qiymat.

Tarjimaning o'rnida: badiiylikni ko'chirish – badiiyatni yaratishdir.

Tarjimon asl asardagi badiiylik vositalarini:

aynan ko'chiradi, yoki ekvivalent vosita bilan almashtiradi, yo bo'l-ma-sa kompensatsiya qiladi. Natijada tarjimada ham muayyan estetik bu-tunlik paydo bo'ladi – bu tarjima badiiyatidir. Masalan: "Oqshom osmoni shafaqdan yaltirardi" (badiiylik vositasi – metafora, epitet). Turkchada: "Akşam göğü şafaktan parlıyordu." Bu vositalarning mosligi tarjimada ham badiiyatni ta'minlaydi. Agar vosita ko'chmasa, natija – badiiyat ham zaiflashadi.

Sodda misol bilan izohlasak: Badiiylik – rassomning bo'yoqlari, cho'tkasi, texnikasi. Badiiyat – shu bo'yoqlar bilan chizilgan tayyor, estetik qiymatga ega rasm.

Matyoqub Qo'shjonov badiiyat qonuniyatlari deb mazmun va shakl birligi, konflikt, syujet, kompozitsiya, qahramon, til va boshqalarni tushunadi [4, 147-160].

Tarjimada badiiylikni saqlash masalasi. Tarjimon oldida turgan asosiy vazifa mazmunni yo'qotmasdan, asarning badiiy kuchini boshqa tilga o'tkazish.

Bu jarayonda tarjimon duch keladigan qiyinchiliklar quyidagilar:

a) Tildagi farqli jihatlar

Metafora, epitet, qochirimlar har doim to'g'ri ko'chmaydi. Masalan, o'zbekcha "ko'ngli oppoq" iborasi turk tilida aynan shu ko'rinishda ishlatilmasligi mumkin.

b) Milliy realiyalar

Mahalliy buyumlar, kiyimlar, taomlar (chakmon, tandir, so'ri) boshqa tillarda o'z ekvivalentiga ega bo'lmisligi mumkin.

c) Obrazlilikni saqlash

Onomatopeya, ritmik ohang, muallifning badiiy usuli tarjimada yo'qolib qolish xavfi bor:

Masalan, "g'irch etib sindi", "shildirab oqdi", "shuvilladi". Bularni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish ko'pincha imkonsiz. Masalan:

"Shildirab oqdi" turkchada ko'pincha "sırıldayarak aktı" deyiladi. Bu semantik jihatdan yaqin, badiiylik ham qisman saqlangan.

d) Muallif uslubini saqlash

Har bir yozuvchi o'ziga xos ritm, sintaktik qurilish va leksik olamga ega.

Tarjimada badiiyatni ta'minlashning asosiy prinsiplari

1) Ekvivalentlikka intilish: Mazmun va estetik ta'sirning mos kelishi.

2) Adekvantlik: Asar ruhiga mos, ammo so'zma-so'z bo'lmagan tarjima.

3) Kompensatsiya: Bir badiiy vosita boshqa tilga ko'chmasa, boshqa joyda o'rnini boshqa vosita bilan to'ldirish.

4) Muallif uslubini tiklash: Muallifga xos ohang, sintaksis, metaforalar, leksik qatlamni maksimal darajada qayta yaratish.

5) Obrazilarning tabiiyligini saqlash: O'quvchi tarjimadan "tarjima hidini" sezmasligi kerak ya'ni matn tabiiy chiqishi shart.

Tarjimada badiiylikning yo'qolish sabablari: So'zma-so'z tarjima, milliy realiyaning to'g'ri talqin qilinmasligi, stilistik vositalarning noto'g'ri ko'chirilishi, shoshma-shosharlik bilan bajarilgan tarjima, tarjimonning yozuvchi tilini to'liq his qila olmasligidir.

Xulosa.

Maqolada badiiylik va badiiyat tushunchalari o'zaro bog'liq, ammo mazmunan turlicha bo'lgan ikki muhim estetik kategoriya sifatida ilmiy asosda izohlandi. Tadqiqot shuni isbotlaydiki, adabiy asarning badiiy qimmatini nafaqat shakl va mazmundagi uyg'unlikda, balki uning o'quvchiga yetkazadigan estetik samarasida namoyon bo'ladi. "Badiiylik – vosita, badiiyat – natija" tamoyili adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, estetik tahlil va badiiy asar yaratish jarayonlari uchun universal ilmiy mezon sifatida qabul qilinishi mumkin.

REFERENCES

[1] – Гей Н. К. Искусство слова. О художественности литературы. – М.: Наука, 1967. – 335-336 б.

[2] – Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 220-228 б.

[3] – Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 508 б.

[4] – Қўшжонов М. "Моҳият ва бадийат". – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – 147-160 б.